

A.K.Raximov, S.X.Gayupova,
N.A.Mirzayeva



TABIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERINING NAZARIYASI VA AMALIYOTI



33,0502

R-26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

A.K.Raximov, S.X.Gayupova, N.A.Mirzayeva

TABIİY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSİON
KLASTERINING NAZARIYASI VA AMALIYOTI

-14035/4-



CHIRCHIQ DAVLAT RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
«Yangi chirchik print»
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

A.K.Raximov, S.X.Gayupova, N.A.Mirzayeva / Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lism innovatsion klasterining nazariyasi va amaliyoti/ Monografiya. – Chirchiq: «Yangi chirchiq print», 2023. – 108 bet.

Ushbu monografiyada pedagogik ta'lism innovatsion klasterining “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili asosida oliv ta'lism muassasasi bilan umumta'lism maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lism sifatini oshirish, o'qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish, metodik yordam ko‘rsatish hamda zamonaliv ta'lism yondashuvlarini tadbiq etish, talabalar va magistrларни pedagogika sohasiga, ilmiy tadqiqotchilikka yo'naltirish, uzlusiz ta'lism tizimida dars sifatini oshirish, dars mashg‘ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko‘nikmalarini va tadqiqotchilikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Monografiyada pedagogik ta'lism innovatsion klasterining “Chirchiq modeli” hamda uning asosi bo‘lmish “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili haqida nazariy bilimlar, amaliyotda qo‘llash metodikasi keltirilgan.

Monografiya barcha pedagogika oliv ta'lism muassasalarining aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi yo'nalishi talabalari, mutaxassis magistrлари, hamda pedagogika sohasida ilmiy tadqiqot olib boruvchi izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Ma'sul muharrir:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, k.f.d., prof.

G.I.Muxamedov

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, p.f.d., prof.

B.S.Abdullayeva

CHDPU biologiya kafedrasini mudiri b.f.d., dots.

V.B. Fayziyev

Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi (29-mart, 2023 yil 4-sonli majlis bayonnomasasi).

ISBN 978-9943-9396-4-6



© A.K.Raximov. va b, 2023
©«Yangi chirchiq print», 2023

M U N D A R I J A

4

KIRISH

I-BOB. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik innovatsion ta'lim klasterini qo‘llashning nazariy asoslari 6

1.1§. Uzlusiz ta'lism tizimida sifatlari ta'lism tashkil etish muammolari 6

1.2§. Klaster yondashuvida mutaxassis kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari 11

1.3§. Tabiiy fanlar istiqboli va muammolari bilan bog‘liq tashkiliy

pedagogik ishlar 19

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar 27

II-BOB. Tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lism klasteri tamoyilidan foydalanish metodikasi 28

2.1§. Uzlusiz ta'lism tizimida bo‘lajak mutaxassislarini kasbga tayyorlashda Chirchiq tajribasini amalga oshirish metodikasi 28

2.2§.“Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyilining uzlusiz ta'limgagi uzviyigini tashkil etish metodologiyasi 35

2.3§. Tabiiy fanlar rivojini ta'minlashda desa bo‘ladi “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyilli 45

Ikkinci bob bo‘yicha xulosalar 72

III-BOB. Tabiiy fanlarni o'qitishda “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyilining samaradorligini aniqlash 73

3.1§. “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili natijalarini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari 73

3.2§. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili 85

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar 95

Foydalaniqan adabiyotlar ro‘yxati 97

Hovalar 100

KIRISH

Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar ta'lim tizimi o'qitish strategiyasi qanday bo'lishi kerakligi haqida izlanishlar olib bormoqda. Ta'lim qamrovi nuqtai nazaridan juda ham ko'p imkoniyatlar yuzaga keldi. Uchinch ming yillik va barqaror rivojlanish davrida davlatlar oldiga ta'lim bilan barchani teng qamrab olish maqsadi qo'yilgan. Bu masaladagi muvaffaqiyat, albatta, e'tirofga loyiq.

Ta'lim sifati o'qitish samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Sifatli ta'lim davlat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezon sanaladi. O'qitishning sifatini ta'minlash davlatning asosiy ustuvor vazifasi bo'lib, undan foydalanish imkoniyati barchada teng bo'lishi kerak. Davlatning o'tmishi, ijtimoiy, iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, sifatli ta'limdan foydalanishda to'siq bo'lmasligi kerak.¹

Dunyoning ko'pgina yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan ta'lim klasterining modellarini yaratish, uning ilmiy-nazariy asoslari va amaliyatga tadbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'limga klaster yondashuvi muammosi umumiyligi mohiyatlari bo'lsa-da, uning amaliyatga tadbiq etilishi har bir fan tarmog'i va klaster hududining o'ziga xosligiga mos ravishda alohida yondashishni taqozo etadi. Chunki ta'lim klasterlarini fanning muayyan tarmog'i va aniq geografik hududga muvofiq amalgaga oshirish uning samaradorligini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, har bir mamlakatda amalda bo'lgan ta'lim siyosati mavjud zamonaviy va innovatsion talablardan kelib chiqqan holda, unga mos keladigan ta'lim klasterlarining ilmiy-nazariy asoslari va modellarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda amalgaga oshirilayotgan yagona ta'lim siyosatining hududlar kesimidagi ijrosi oliy ta'lim tizimining innovatsion komponentlarini samarali rivojlantirish va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, bugungi kunda ta'minlashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, bugungi kunda pedagogik ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishining hayotiy zaruratga aylanishi unda ta'lim turlari o'rtaida o'zarorat, raqobat, integratsiya, uzyiyilik va uzlusizlikning ta'minlanishi natijasida manfaatlarning qondirilishiga erishish zaruratini namoyon qilmoqda.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi ushbu muhim ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagি muammolar, hamda ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inalri o'rtasidagi

tarqoqlik bugungi kunda uzlusiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot, davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilandi. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon tabiatni o'rganish, uni isloh qilish juda muhim qadriyat sifatida rivojlanib kelgan. Zero, tabiat-tabiyyilik tushunchalar butun olamni, borliqni va jamiyat kelajagini asosini tashkil qiladi. Insoniyat ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, jamiyatni rivojlantirishda ta'lim, ilm va hunardan samarali vosita mavjud emasligining yaqqol dalili bo'ldi.

2019 - 2020 o'quv yilidan boshlab Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti (hozirgi Chirchiq davlat pedagogika universiteti)da rektor G.I.Muxamedovning tashabbusi bilan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri - universitetning ustivor ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilandi va uni amaliyatga joriy etish orqali uzlusiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, amaliyat bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik markazlar bilan uzvini aloqasini ta'minlagan.

Jumladan, tabiiy fanlar fakultetida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga asoslangan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari, tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan akademik litseylar bilan hamkorlikda ish olib borishi, metodik yordam ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish, "Uzlusiz kasbiy ta'lim elektron platformasi"ni tashkil etish, hamda bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish orqali oliy ta'limga qamrovini oshirish, dars mashg'ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyilning asosiy maqsadi etib belgilangan.

Shuningdek, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida ta'lim turlarining ilmiy, nazariy, amaliy, metodik salohiyatlarini yagona maqsadga yo'naltirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, yoki ta'lim muassasalarining muayyan yo'nalishdagi ishlarining samaradorligini oshirishda ulardan oqilona foydalanish kabi masalalar "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchasi tushunchasi ostida birlashdi.

Mualliflar monografiyani shakllantirishda o'z g'oyalari va amaliy ko'magi bilan katta yordam bergan kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedovga minnatdorchiliklarini bildiradilar.

¹ <https://yuz.uz/news/yunisef-konsltanti-sifatl-i-talim-hammaga-barobar-bolishi-kerak>

I-BOB. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK INNOVATSION TA'LIM KLASTERINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 § Uzluksiz ta'lismi tizimida sifatli ta'lismi tashkil etish muammolarini

Jahon mamlakatlarida bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning asosi ta'lismi sohasida amalga oshirilmoqda. BMT ning "Barqaror rivojlanish kun tartibi"da insonning intellektual tarbiyasiga oid chora-tadbirlarning belgilanishi ham avvalo kelajak avlod kamoloti uchun olib borilayotgan ta'lismi-tarbiya ishlarining sifat masalasiga bog'liq holda ta'lismi-tarbiya tizimini nazorat qilish, pedagogik jarayonlarni sifatini baholash texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatib kelmoqda.

Dunyoning Yevropa tashkilotlari va Osiyo institutlarida o'tgan asrdan boshlab kvalitologiya muammolarining ilmiy-amaliy muhokamasi yuzasidan xalqaro seminar, sinpozium va konferensiylar ("Sifat ABC") tashkil qilinishi davriylik kasb etmoqda. Bolonya jarayonlari doirasida Yevropa mamlakatlarida ta'lismi sifatini kafolatlovchi yagona mezonlar va standartlarini ishlab chiqish, TQM-sifatni yalpi boshqarish konsepsiysi, Xalqaro ISO 9000:2000, ENQA (oliy ta'limga sifatni kafolatlash Yevropa assotsiatsiyasi), Sifat menejmenti bo'yicha Yevropa fondi modeli, hamda boshqa milliy modellar asosida ta'lismi muassasalarining sifat tizimini ishlab chiqish va joriy etish masalalari ta'limga oid kvalimetrik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda joriy holatda ta'lismi muassasasi va xodimlari uchun attestatsiya, akreditatsiya, sertifikatsiya, "KPI – eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" asosida faoliyat samaradorligini baholash mezonlari va joriy qilingan yillik reytinglar kvalimetrik amaliyotlardan bo'lsa, ta'lismi oluvchilar uchun joriy, oraliq, yakuniy nazorat va sinov imtihonlari samaradorlikni aniqlashning an'anaviy shakllari sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Mamlakatimizda ta'lismi muassasalarini reytingini ishlab chiqish va baholash kognitiv xususiyat kasb etib, asosan ta'lismi natijadorligiga qarab o'chanadi.

Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davrida ta'limganing barcha bo'g'inlarini integratsiyalashda ta'lismi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, hamda davlatlarning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Hind mustaqilligining ma'rifatparvari, faylasufi va mafkurachisi Maxatma Gandhi insoniyatning yetti xil gunohlari orasida sifatsiz ta'lismi haqida gapirgan.

Talabalarning intellektual va axloqiy tayyorlarligi, ta'lismi muassasalarining

moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq kelajakdag'i o'zgarishlar, ta'lismi xizmatlari bozorida jiddiy raqobat tobora ortib borayotgan talablar sharoitida ta'lismi sifati muammosi isloh qilinayotgan maktabda eng muhim hisoblanadi. Talabalar bilimlarining davlat standartlariga muvofiqligi, ta'lismi muassasasining muvaffaqiyatli ishlashi, har bir o'qituvchining faoliyati bugungi kunda ta'lismi sifatini tushunishdir.

Zamonaviy maktabda sifatni qanday aniqlash mumkin? Shubhasiz, bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish darajasini, hamda u davom etayotgan sharoitlarni aks ettiruvchi maqsad va natijaning o'zaro bog'liqligidir. Buning uchun ushu shartlarni amalga oshirish mezonlarini belgilash kerak. Birinchidan, bu "Hamma narsani hal qiladigan" kadrlar, ikkinchidan, uning moddiy-texnik bazasi, uchinchidan, o'quv-dasturiy ta'minot va ilmiy-uslubiy ishlari zaruriy omillardan sanaladi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yanada samarali shakllari, usullari, shuningdek vositalarini izlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va shuning uchun ta'lismi sifatini oshirish zarurligi aniqlandi.

Qanday qilib fanga, mavzuga doimiy qiziqishni rivojlantirish, talabalarda bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga eng katta hissa qo'shadigan zarur usul va usullarni topish mumkin?

Bizning fikrimizcha, o'qituvchi rahbarligida darslarda talabalarning mustaqil ijodiy ishlari faollashtirish o'quv jarayonini takomillashtirishning samarali usullaridan biridir. Shuning uchun darsda o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtiradigan va o'rganish sifatini oshiradigan muhit yaratish kerak.

Har bir o'quvchi-talabaning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni o'z ichiga olgan ta'lismi individuallashtirish haqida unutmashligimiz kerak. Afsuski, bizning ta'lismi tizimimizda uzoq vaqt davomida talabalarga individual yondashishga imkon beradigan haqiqiy mexanizmlar mavjud emas edi. Maktab insonning shaxsiyatini shakllantirishga muhtoj emas edi, faqat ma'lum ijtimoiy funksiyalarni bajarishga tayyorlandi. Zamonaviy ta'lismi maktabni shaxsga yo'naltirilgan ta'lismi amalga oshirishga yo'naltiradi. Shuning uchun o'z intellektual va ta'lismi salohiyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxsnı rivojlantirish va tarbiyalash maktab ta'limida birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. Shunday qilib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini, ularning individual qobiliyatlarini ochib berish, kelajakdag'i kasb bilan bog'liq fazilatlarni shakllantirish uchun maktab amaliyotida darslar-taqdimotlar, darslar-konferensiylar, biznes o'yinlar, seminarlar, loyihalarni himoya qilish kabi ta'lismi

shakllaridan foydalanish kerak. Ushbu qatorda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, fan haftalarini o'tkazish alohida o'rinn tutadi. Pedagogik klaster tamoyiliga binoan o'qitishning shakllari har bir talabaning individualligi va ijodiy salohiyatini oshib berishga yordam beradi.

O'zbekiston ta'lmini modernizatsiya qilish konsepsiyasida barcha bosqichlarda o'qitish usullari va texnologiyalarini o'zgartirish, mas'uliyatli tanlov va mas'uliyatli faoliyat tajribasini shakllantiradigan, talabalarning mustaqil ishini rag'batlantiradigan, ma'lumotlarni tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini singdiradigan usullarning ahamiyatini oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Ta'lrim sifati muammosini hal qilish ta'lrim muassasalarining atrof-muhit o'zgarishiga, jamiyat ehtiyojlariga, ijtimoiy buyurtmaga qanchalik o'z vaqtida va yetarli darajada javob berishiga, samarali va pedagogik jihatdan asosli usul va texnologiyalar tanlanishiga bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda pedagogik ta'linda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda o'qituvchilik kasbinining mavqeyini mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lrim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'larning asosiy va yordamchi vositalarini zamonga mos holda takomillashtirish, sohaga xususiy sektorni ko'proq jalb qilish va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish kabi yo'naliishlarni qamrab olgan.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ushbu islohotlarga to'la javob berishi bilan ham ahamiyatlidir. Mazkur ilmiy-pedagogik muammo o'zining innovatsion xarakteri, xorijiy tajribadan muvaffaqiyatlari o'tgani va ta'lim turlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlay olishi bilan ham mamlakatimiz ta'lim tizimiga to'la mos keladi.

Bilim tashuvchisi bo'lgan o'qituvchi bilimlarni o'quvchiga yetkazishning eng asosiy manbai hisoblanadi, ta'larning sifati esa, o'qituvchining kompetentligi bilan belgilanadi. Bunda bilimlarni egallashda talabaning kompetentligi, uning tayyorgarligi va bilimlarga ega bo'lismi bilan bog'liq motivatsiyasiga bog'liqligini unutmaslik kerak.

Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi-ta'lim tizimining holati, shaxsnı rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan belgilanadi. Zero, rivojlangan davlatning istiqboldagi barqaror o'sishini ta'minlovchi omillar, aynan, ta'lim sohasining qanday tarzda tashkil etilganligiga bog'liqdir. Shu sababli, mustaqillikning ilk kunlaridanoq ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzlusiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Islohotlar davrida Respublikamizda yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzviylik va uzlusizlikka asoslangan yaxlit ta'lim tizimi tarkib topdi.

Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarining o'zaro uzviy bog'liqligida, shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillarining munosabatini taqazo etadi. Zero, har xil sharoitlarda kasbiy muammolarni samarali yechishga qodir bo'lgan kompetentli mutaxassisni shakllantirish nafaqat uning bilim va faoliyat tajribasini egallashi, balki o'zini o'zi bilishi, amalga oshirilayotgan faoliyatning ma'nosini izlashi, o'zini o'zi anglashi, ichki va individual-guruhiy qarama-qarshiliklarni samarali hal qilishni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan, shaxsnı shaxsiy va kasbiy rivojlantirishni yagona jarayon, birlashtiruvchi tamoyilning bir butunligi, shaxsnı hayotning turli sohalarida o'zini namoyon qilishi mumkin qonuniy in'ikosi sifatida qarab chiqish tabiiy hisoblanadi. Albatta, insonning shaxsiy va kasbiy hayotda rivojlanishi, shu jumladan, kasbiy tajriba yig'ishi, muhim shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. Biroq, bunday rivojlanishning negizi shaxsiy fazilatlarini shakllantirish hisoblanadi: bular muhim maqsadlardan xabardorlik, kasbiy sohasidagi yutuqlardan manfaatdorlik, kasbiy sohada o'z salohiyatini amalga oshirishga ijodiy intilish.

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tabiiy fanlar kasbiy bo'yicha mutaxassis – pedagogni shakllantirish – kasbiy kompetentlik sifatlarini tarbiyalash, kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni qaror toptirishning ustuvorligi asosida ularning yuqori darajada intellektual, psixologik, fiziologik, ma'naviy-axloqiy yetuk bo'lishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Mazkur jarayonning samarali tashkil etishishi uning tashkiliy, metodik va amaliy jihatdan to'g'ri, oqilona uyuştirilishiga bog'liq.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda mutaxassislarning kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Kuchli raqobatga asoslangan bozor munosabatlari ham mutaxassisning unga nisbatan bardoshli bo'lishini taqozo etadi. Kompetentlik sifatlariga ega bo'lgan mutaxassisgina kuchli raqobatga bardosh bera oladi. Shu sababli tadqiqot davrida kompetentsiyaviy yondashish asosida bo'lajak biolog – pedagoglarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq va bu borada pedagogik ta'larning innovatsion klasteri tamoyillari samarali vosita vazifasini o'taydi. Kompetentsiyaviy yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra bo'lajak mutaxassislarda bozor iqtisodiyoti talablari asosida kasbiy tayyorgarlik va qobiliyatni rivojlantirish bilan birga ular tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda texnologiyalarni samarali o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlik va kompetentlikni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo'naliishlarda o'rganilgan. Aksariyat pedagogik-psixologik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik shaxsning ijtimoiy-

kasbiy yo'nalgaligi asosida shakllanadigan, kasbiy vazifalarning samarali yechimini ta'minlashga xizmat qiluvchi kasbiy tayyorgarlikni amaliy faoliyatda namoyon bo'lishi sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlik mutaxassis kasbiy tayyorgarlik darajasining faoliyat talablariga mosligi va layoqatlilik sifatida ham qayd etiladi. Bu mehnat bozorining zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talablari, integrativ kasbiy-shaxsiy sifatlar majmuasi hamda kompetentsiyalarga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat mazmuni orqali ifodalanadi.

Ilmiy-pedagogik tahlillar jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish muammolari aksariyat izlanishlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash misoldida o'rganilganligi, shu bilan birga mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan kompetentsiyalar tuzilmasi va elementlari kelgusidagi kasbiy faoliyat talablari uchun qaratilganligi, amaliyotdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari esa faoliyatning real talablaridan kelib chiqqan holdagi rejalashtirishni talab qilishi aniqlandi.

Talaba oldida turgan ushbu masalalarni hal qilish uni o'zini-o'zi rivojlantirish subyekti sifatida ko'rib chiqish kerak. Ideal ko'rinishda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limga (jarayon sifatida) - bu talabalarni faollashtirish va kasbiy o'zini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, boshqariladigan ta'limga faoliyatini tashkil etishni nazarda tutib, bu o'z navbatida talabalarning o'zlarini ta'limga jarayoniga jalg qilinishi, ushbu jarayonni amalga oshirish, ularga ma'lum kompetentsiyalarni berish, kuchlarni taqsimlash, tashabbuskorlik, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi javobgarlik, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishni taqozo etadi.²

Shu nuqtai nazardan kompetentli mutaxassisni tayyorlash nafaqat yangi ta'limga usullari va boshqa o'quv mazmunini kiritishga, balki pedagogik faoliyatning o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limga zarur shart-sharoitlariga talabaning turli ehtiyojlarini, qobiliyati, hayotda erishish uchun intilishlari, manfaatlari, maqsadlari shuningdek, o'z o'rni va huquqi uchun kurasha oladigan qadr-qimmatga ega shaxs sifatida qabul qilish kerak.

Mutaxassisning kompetensiyasi doirasiga ishlab chiqarish va shaxslararo nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar kiritilishi kerak. Insonning shaxslararo aloqalarni o'rnatish va samarali amalga oshirish qobiliyati kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish va mehnat jamoasida moslashish uchun muhim shart bo'lib hisoblanadi.

² Фролов, Ю.В. Компетенсиya modeli mutahassislarni tayyorlash / Фролов, Д.А. Макхотин // Oliy ta'limga bugun. - 2004. - № 8.

Bunday kompetensiya tarkibida uchta asosiy darajani ajratib ko'rsatish mumkin, ularning har biri bir qator unsurlarni o'z ichiga oladi:

- 1) kognitiv daraja (bilim va ijodiy komponentlar);
- 2) motivatsion daraja (motivatsion-ehtiyoj komponenti va shaxsiy xususiyatlarning tarkibiy qismi);
- 3) tartibga solish darajasi (hissiy, irodaviy va kommunikativ komponentlar).

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan oliy ta'limga muassasalari tomonidan o'quv jarayonini tashkil etishning kompetensiayivi yondashuvi mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish masalasini hal qilishda tubdan yangi pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu yondashuvda asosiy jihat kelajakdagagi mutaxassisni fan bo'yicha tayyorlashga e'tibor qaratishni rad etishdir.

Kompleks yondashuvning asosiy g'oyalarini amalga oshiradigan eng istiqbolli pedagogik texnologiyalardan biri bu o'quv kurslarini o'qitishni kasbg'a yo'naltirish texnologiyasıdır. Bu texnologiyaga binoan ta'limga beriladigan fan nazariya va amaliyot birligini ta'minlashi, amaliy mashg'ulotlarning soatini nazariyadan ko'proq bo'lishini va mustaqil ta'limga asosida talabalarning egallagan bilimlarini ham qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishi mumkinligi aniqlandi. Bu boroda pedagogik ta'limga klasterining "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili o'quv jarayonida kredit-modul tizimiga muvofiq kelishi va ta'limga sifatini jahon tajribasiga muvofiq rivojlantirishga mos kelishini ko'rsatadi.

1.2§. Klaster yondashuvida mutaxassis kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'limga tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki, maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'limga va tarbiyaning asosi, poydevori bu-maktab. O'quvchi, talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta'minlashda klasterdan foydalananish muhim o'rinni tutadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ta'limga muassasalarida ta'limga tarbiyaviy jarayonda turli yondashuvlar, jumladan, kompetentsiyaviy yondashuv muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limga talabalarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy

faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etish maqsadida mustaqil ravishda amalda qo'llay olishga layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir.

Talabalar kelgusida o'z hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, mustaqil hayoti davomida jamoa va jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Klaster "cluster" - ingliz tilida shajara, zanjir - bog'lanish, tarmoqlanish degan ma'nolarni berib, o'zlashtirilgan bilim, nazariya, qonuniyat va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib, tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

XX asrning 90-yillarida jahonda ishlab chiqarish klasterlari haqidagi g'oyalari va ular asosida turli tarmoqlarda klasterlarni tashkil etish amaliyoti boshlandi. Klasterli rivojlanish nazariyasining asoschisi M.Porter bo'lib, u mazkur yondashuvni muayyan bir tarmoqda bir-biriga bog'liq sohalarning uyushmasi, birgalikda harakat qilishi deya tushuntiradi. Jalon iqtisodiyoti rivojlanishi barobarida turli xil tarmoq va hududiy klasterlarni yaratish tarafдорлари ortib bormoqda. Bugungi kunda turli mamlakatlarning 100 dan ortiq tarmoqlarida klasterlar tashkil etilgan. Eng dastlabki klasterlar Finlyandiya (kommunikatsiya-axborot, Nokia), Yaponiya (avtomobilsozlik, Toyota), Italiya (qurilish sanoati), AQSH (informatsion texnologiyalar, Silikon vodiysi) davlatlarida barpo etilgan bo'lib, ular orasida Silikon vodiysi klasteri mukammalligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki xorijlik olimlar A.Marshall, M.Porter, O.Sovel, S.Ketelslarning ilmiy izlanishlarida klaster tizimining nazariy masalalari, ularning muayyan subyektlar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli, hamda ta'lif klasterlari xususiyatlari AQSH va Yevropa mamlakatlari misolida tadqiq etilgan.

Ta'lif sohasida olib borilayotgan jadal islohotlarga qaramasdan uzlusiz ta'lif tizimini yo'lga qo'yish jarayonida ko'zga tashlanayotgan qator kamchiliklar islohotlarda tizimli yondashuv yetishmayotganidan dalolat bermoqda. Yangidan ishlab chiqilayotgan yoki qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirilayotgan dastur va loyihibar uzlusiz ta'lif tizimini samarali tashkil etishga xizmat qila olmayapti. Ba'zi hollarda islohotlarning ilgaridan mavjud bo'lgan muammolarga to'la yechim taklif eta olmayotgani ko'rinish qolmoqda. Undan tashqari XTTS bo'yicha uzlusizlik va uzviylik mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan kelgusida respublikamizda xalqaro ta'lif tasnifi standartlari (XTTS) bilan uyg'unlashtirilgan : boshlang'ich ta'lif ⇒ o'rta ta'lif ⇒ o'rta maxsus professional ta'lif ⇒ oliv ta'lif tizimlarini tabaqalashtirilgan ta'lif dasturlari asosida tashkil etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Shuningdek, hozirgi vaqtida turli sohalarda klasterlarni joriy etish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda dastlab paxta-to'qimachilik tarmoqlarida, turizm va tibbiyot sohalarida ham innovatsion klasterlarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo "Ta'lif klasteri" tushunchasi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, gorizontal asosda ta'lifning turli bo'g'linlarini o'zaro hamkorligini ta'minlash orqali samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida ta'lif muammolari yechimida eng samarali mexanizm deb tan olinayotgan ta'lif klasterlari respublikamizda ilk bor Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tajribasi asosida joriy etila boshlandi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish zamonaviy ta'lif berishning samarali usullaridan biridir. Ta'kidlash joizki, respublikamiz ta'lif tizimida klasterli yondashuvni joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri asosida ta'lif bosqichlari (muktabsaga ta'lif muassasalari, umumiy o'rta ta'lif maktablari, akademik litsey, oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi ta'lif zanjiri) o'rtasida o'zaro aloqa va integratsiyani kuchaytirish, ta'lif sifatini oshirish maqsadida biologiya va geografiya ta'lifini rivojlantirish modelini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu holatdan kelib chiqqan holda ta'lifning turli bosqichlarini o'zaro aloqadorligini taminlaydigan tizim sifatidagi yo'nalishni talab etmoqda, pedagogik ta'lif klasteri ushbu jihatdan zarur bo'lgan yo'nalish hisoblanadi.

- Ma'lumki kompetensiyaning asosi *bilim*, *ko'nikma*, *malaka* bo'lib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning zaruriy sharti *amaliy faoliyat* hisoblanadi. Bunda birinchidan, o'quv jihozlari va o'quvchining mustaqil ishslash imkoniyatini oshirish, ikkinchidan esa, o'quvchining muvaffaqiyatlari amaliy faoliyat ko'rsatish uchun ularga motivatsion muhitni yaratish, ta'lif ehtiyojlarini hisobga olish va qoniqtirish zarur bo'ladi. N.F.Radionova ta'kidlaganidek, "kompetentlikning tabiat shundayki, u insonning e'tiqodi bilan chambarchas birgalikda namoyon bo'ladi".

Shu ma'noda pedagogik tashxis zarur ahamiyat kasb etadi:

- ta'lim natijalarini o'rganishga yo'naltirilgan – didaktik tashxislash. Bunda ta'lim natijasi, o'quvchilarning ta'lim olganlik darajasini ya'ni bilim, ko'nikma va malakalari orqali aniqlanadi;

- ta'lim jarayoni subyektini o'rganishga yo'naltirilgan ruhiy-pedagogik tashxis. Bu yo'nalishda: o'quvchining ta'limga bo'lган ehtiyojlari, o'quvchining individual-shaxsiy xususiyatlari, o'zini tutishi o'rganiladi.

Boshqaruv bo'yicha tashxis. Bu tashxis ta'lim jarayoni elementlari va bo'g'inlarini ya'ni maqsadni qo'yish, matabda va darsda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, matabning barcha darajadagi tarkibiy qismlarining faoliyati, metodik va texnik jihatdan jihozlanganligi, pedagogik jamoa malakasining oshirilganligidir.

- ijtimoiy-pedagogik tashxis.

Yuqorida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari haqida fikr yuritdik. Mazkur fikrlar umumta'lim muassasalari uchun huquqiy-meyoriy asosga ega. Lekin, oliy ta'lim muassasalari uchun birorta meyoriy hujjat asosida tayanch va fanga oid kompetensiyalar belgilanmagan. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyalarning nomlanishi va kompetentlik mazmuniga oid qator anglashilmovchiliklar mavjud. Oliy ta'lim muassasalari uchun tayanch va mutaxassislikka oid kompetensiyalarni shakllantirish va ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Kompetensiyalar (bilimlar va ularni qo'llash, ko'nikma, mas'uliyat va nuqtai nazar) tavsifining kombinasiyasidan iborat bo'lib, inson namoyish qila oladigan bilim darjasini va saviyasini ta'riflash uchun ishlataladi. Mazkur nuqtai nazardan kompetensiyalar yoki ularning majmui inson o'z bilim va ko'nikmalariga tayangan holda vazifani maromiday bajara olishi va bu uning faoliyatiga baho berishning mezonini hisoblanishi mumkinligini bildiradi. Binobarin, kompetensiyalar namoyish etilishi va baholanishi quyidagi asosiy kompetensiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, masalan: kasbiy, shaxsga oid va kommunikativ.

Kompetentli yondashuv ta'lim natijalariga yo'nalgalanlikni nazarda tutadi, shu bois har bir talaba uchun ta'lim jarayoni qanday natijalar bilan tugashiga alohida e'tibor berilishi zarur. Masalani bu kabi qo'yish alohida e'tibor (urg'u)ni o'qituvchining maqsad va vazifalaridan ta'lim oluvchilarning real yutuqlariga ko'chiradi. Ta'limning natijasi o'zlashtirilgan bilimlar va o'rganilgan kompetensiyalar hisoblanadi.

Ta'lim faoliyatining mahsuloti – bu muayyan malakaviy hujjatlar bilan tasdiqlangan kompetensiyalar darajasiga ega mutaxassis hisoblanadi. Mutaxassis kompetensiyasini asosiy (bazaviy) kompetensiyalari qatoriga umum ilmiy va

umumkasbiy mezonlar, tushunchalar, tamoyillar va ilm-fan, texnika va jamiyatning amal qilish qonuniyatlarini qo'shish mumkin.

Ushbu tadqiqot doirasida ilk bor biologiya ta'limini innovatsion ta'lim klasteri asosida tashkil etish va samaradorligini o'rganish ustida pedagogik tadqiqotlar olib boriladi, shuningdek pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida geografiya ta'limini rivojlantirish modeli (ta'lim bosqichlari o'rtasida aloqadorlik, uziyiqlik va uzuksizlik, integratsiya asosida) ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy qilinadi.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi kunda talabalarni qisqa muddatda tegishli ma'lumotlar bilan qurollantirish ular tomonidan fan asoslarining puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Globallashuv sharoitida ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan foydalanan shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Demak, talabaning fikrlash va harakatlar strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. U o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini ko'zda tutadi.

OTM bitiruvchisi kompetentsiyasini shakllantirish jarayoni ta'lim jarayoni bilan aynanlashtiriladi hamda ta'lim olishning turli shakl va baholarini birqalikda qo'llashni taqozo etadi, bular:

- nazariy ta'lim;
- amaliy ta'lim (amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, fan sohasida amaliy faoliyat – barcha turdag'i amaliyotlar);
 - ilmiy-tadqiqot faoliyati;
 - mustaqil ish;
 - oraliq va yakuniy attestasiya.

Faoliyatning birinchi to'rtta turi ta'lim jarayonini shakllantiradi va ta'lim oluvchilar (talabalar, aspirantlar va doktorantlar) tomonidan kompetentsiyalarga ega bo'lishga qaratilgan, turli ko'rinishdagi attestasiyalar esa olingen kompetentsiyalarni tasdiqlashga qaratilgan.

Har bir ta'lim bosqichida talabalar kompetentsiyalarga baho berish uchun kompetensiyalar identifikatorlari va ularga mos keladigan kvalimetrik shkalalardan foydalilanadi. Kompetentsiyalarning identifikatorlari sifatida bilimlar, ko'nikmalar, uquvlar, shuningdek shaxsga xos tavsiflar (muloqotlilik, jamoada ishslash qobiliyatiga egalik, qarorlar qabul qila olish, bilimlarni mustaqil ravishda olish va ulardan foydalish)ni misol qilish mumkin.

Yuqorida aytilib o'tilganlardan ta'lim natijalariga baho berish mezonini tubdan o'zgartirgan holda talabalarning yuqorida aytilib o'tilgan shaxsiy tavsiflarini

kompetentsiyalarga baho berishning umumiyligini mezonlariga kiritish zarurati kelib chiqadi.

Ushbu nuqtai nazaridan kompetentli mutaxassisni tayyorlash nafaqat yangi ta'lim usullari va boshqa o'quv mazmunini kiritishga balki pedagogik faoliyatning o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Shuning uchun, kompetentsiyaga yo'naltirilgan ta'limning zarur shart-sharoitlariga talabani turli ehtiyojlari, qobiliyat, hayotda erishish uchun intilishlari, manfaatlari, maqsadlari shuningdek, o'z o'mi va huquqi uchun kurasha oladigan qadr-qimmatga ega shaxs sifatida qabul qilish kerak.

Mutaxassisning kompetentsiyasi doirasiga ishlab chiqarish va shaxslararo nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar kiritilishi kerak . Insonning shaxslararo aloqalarni o'rnatish va samarali amalga oshirish qobiliyati kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish va mehnat jamoasida moslashish uchun muhim shart bo'lilb hisoblanadi .

Shunga asosan ta'limguhit pedagogik shart-sharoitlar, ta'limg-tarbiyaning to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limguning o'ziga xos jihatni talaba shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limg-talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga hizmat qiladi. Bu turdagagi ta'limgi tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashish, uning shaxsini hurmat qilish va ishonch bildirishni taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limg-o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zar hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruratini ifodalaydi.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda professor-o'qituvchilar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Tadqiqot muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlar innovatsion ta'limguhani sharoitini yaratish bo'yicha yakdil fikr qabul qilinmaganligini ko'satdi. Shunga qaramasdan, innovatsion ta'limguhani sharoitini yaratish muammosi bo'yicha aksari ta'limguhani muassasalarining bo'linmalarida mazkur ta'limguhani muassasasi darajasida tadqiqotlar olib borilgan.

Oly ta'lim muassasalari va ularning bo'linmalarida innovatsion ta'lim muhitni sharoitining muvaffaqiyatlari tashkil etilishi ko'p jihatdan o'quv rejadan o'rinni olgan

o'quv kurslarini o'qitishni maqsadga muvofiq tashkil etilishiga bog'liqligi e'tiborga olinadi. Shu sababli, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini tadqiq etish tadqiqot muammosi sifatida belgilandi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida tabiiy fanlar (biologiya va geografiya) ta'limini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida ta'lim sifatini oshirish asosiy ustuvor vazifalardan sanaladi. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri “Eshidim–ko‘rdim–bajardim” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- oliy ta'limga muassasasining umumta'lim maktablari (tabiiy fanlarni o'qitish)ga metodik yordam ko'rsatish,
 - ta'limga sifatini oshirish, o'qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish,
 - "Uzlusiz kasbiy ta'limga elektron platformasi"ni tashkil etish, hamda bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish orqali oliy ta'limga qamrovini oshirish,
 - dars mashg'ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.
 - pedagogik ta'limga sohasidagi integratsiya, innovatsiya, uzviylik, uzlusizlik, izchillik, samarali vorisyilikni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
 - ilmiy asoslangan innovatsion loyihalarning tajriba-sinov jarayonlarini tashkil qilish,
 - pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o'rta va oliy ta'limga hamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanish imkoniyatini yaratish;
 - pedagogik ta'limga rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;
 - ta'limga, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta'limga tatbiq etish hamda o'quvchilarni PISA dasturiga tayyorlash asosiy tamoyil maqsadlarini ifodalaydi.

Tabiiy fanlar fakultetida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish quydagi bosqichlar asosida olib boriladi, hamda quydagi vazifalar tamoyilning funksional birligini tashkil etadi:

- ta'lim bosqichlarida biologiya va geografiya ta'limi bo'yicha hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish;
 - ta'lim bosqichlarining o'zaro hamkorligi asosida biologiya va geografiya ta'limida mavjud muammolarni aniqlash va ilmiy asoslangan holda yechimini ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini yaxshilash choralarini ko'rish;
 - o'quv-meyoriy hujjatlarni tahlil qilish, o'quv-uslubiy qu'ilanmalar yaratish, amaliy mashg'ulot materiallarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy qilish, bu

boradagi mavjud kamchiliklarni o'rganish va bartaraf etish, pirovardida ta'limgiz sifatini yaxshilash;

- pedagogik ta'limgiz klasteri biologiya va geografiya ta'limgizda ta'limgiz bosqichlari bilan hamkorlikda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning ilmiy, o'quv-metodik bazalarini shakllantirish,

- pedagogika sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajriba, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalgalash;

* - iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni rivojlantirishda OTM talabalarini jalb etish orqali ularda pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish;

- pedagogik ta'limgiz innovatsion klasteri asosida biologiya va geografiya ta'limgizni rivojlantirish modelini ishlab chiqish.

Ta'limgiz bosqichlarida biologiya va geografiya ta'limgiz bo'yicha hamkorlik aloqalari yo'lgan qo'yiladi va o'zaro hamkorlik asosida biologiya va geografiya ta'limgizni mavjud muammolari aniqlanadi va ilmiy asoslangan holda yechimini ishlab chiqish orqali ta'limgiz sifatini yaxshilashga erishiladi.

Pedagogik ta'limgiz innovatsion klasteri vositasida umumta'limgiz mакtabalarida biologiya va geografiya kafedrasi filiallari tashkil etiladi;

umumiy o'rta ta'limgiz mакtabalarida biologiya va geografiya fanlarini o'qitish metodikasi takomillashadi;

biologiya va geografiya ta'limgiz mavjud ta'limgiz muassasalari o'rtasida o'zaro o'quv-uslubiy va ilmiy-metodik hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'limgiz sifatini oshishiga erishiladi;

o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishga qo'yiladigan talablar, undan kelib chiqadigan ta'limgiz mazmuni, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi, o'qitish metodlari, vositalari, shakllarining uyg'unligi va uni amalgalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning shakllanganlik darajasini aniqlash imkonini beradigan reyting nazorati vositalari, standart va nostandard test topshiriqlari ishlab chiqiladi;

pedagogik ta'limgiz innovatsion klasteri asosida biologiya va geografiya ta'limgizni rivojlantirish modellarining elektron dasturi uchun intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohnomasi olinadi;

pedagogik ta'limgiz innovatsion klasteri asosida biologiya va geografiya ta'limgizni rivojlantirish modeli bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar nashr ettiriladi.

Oliy ta'limgiz muassasalarida innovatsion ta'limgiz muhitini shakllantirish ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishi sanalgan uzluksiz ta'limgiz tizimiga kompetentsiyaviy yondashuvga muvofiq tashkil etiladigan ta'limgiz-tarbiya jarayoni orqali raqobatbardosh kadr, keng tabiiy-ilmiy dunyoqarashga ega barkamol shaxsni voyaga yetkazish imkonini vujudga keltiradi.

Innovatsion ta'limgiz muhiti novatsiyalarni ta'limgiz-tarbiya jarayoniga kiritishni talab etadi.

Novatsiya – pedagogik jarayonni modernizatsiyalash va takomillashtirishga yo'naltirilgan yangilik sanalsa, innovatsiya pedagogik jarayonni tashkil etish, boshqarishni sifat o'zgarishiga olib keladigan g'oya va jarayon bo'lib, novatsiyani amaliyotga tatbiq etadi.

Fakultet magistrantlari, tadqiqotchi o'qituvchilar, doktorantlarning tajriba maydoni vujudga keladi hamda kafedralarning ilmiy tadqiqot faoliyat ko'lami oshiriladi.

1.3 § Tabiiy fanlar istiqboli va muammolarini tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limgiz tarbiya sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'limgiz sifatini oshirish, sohaga ilg'or ta'limgiz texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik-innovatsion texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limgiz vazirligi, xalq ta'limgiz vazirligi, oliy ta'limgiz muassasalarini rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilandi.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'limgiz sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish, sifatli ta'limgizni ta'minlash davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

Zero, o'g'il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqr o'qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turki beradi, hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi³.

Ixtisoslashtirilgan mакtablarda kimyo va biologiya fanlarini samarali o'qitishni muvofiqlashtirish uchun ularga oliy ta'limgiz muassasalarining 55

³O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarda uzluksiz ta'limgiz sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4805-sonli Qarori.

ta kafedrasi biriktiriladi. Shu qatorda ishlab chiqarish tarmoqlari uchun o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo'lga qo'yish yuzasidan kimyo va biologiya yo'nalishlariga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlaydigan 47 ta professional ta'lif muassasalariga ishlab chiqarish korxonalarini biriktirilishi ham nazarda tutilgan.

Oliy ta'lif muassasalarida kimyo va biologiya yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, fanlarni rivojlantirish uchun ularning 74 ta kafedrasiga 11 ta fanlar akademiyasi ilmiy - tadqiqot instituti hamda ishlab chiqarish tarmoqlari biriktiriladi.

Kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini qo'shimcha moliyalashtirish, ularni jihozlash, o'qituvchilarga ustama haq to'lash, hamda kimyo va biologiya fanlarini o'qitish bo'yicha boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun Qoraqalpog'iston vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan maxsus jamg'armalar tashkil etiladi.

Tez sur'atlar bilan o'sib kelayotgan dunyo iqtisodiyoti barqaror rivojlanish maqsadida, turli sohalarda fuqarolardan kuchli bilim va tashabbuskorlikni talab etmoqda. Ayniqsa biologik fanlar sirasiga kirgan genetika va seleksiya sohasidagi rivojlanishlar va olib boriladigan tadqiqotlar er shari aholisini kelajakda kutadigan turli xil ekologik va iqtisodiy tangliklardan qutqarish vositasi bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda ta'lif tizimini takomillashtirish, o'quv-texnik ta'minlash, umumiy o'rta ta'lif uchun davlat ta'lif standartlari va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ta'lif oluvchilarining ijodiy fikrlesh qobiliyatlarini, iqtidorini barvaqt aniqlash hamda ularda tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi[15].

Yuqori sifatlari ta'lif - taraqqiyotning kuchli drayveri hamda qashshoklikni kamaytirish va sog'liqni saqlash, gender tengligi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning eng kuchli vositalaridan biri. Bolalar bilim olib, muvaffaqiyat qozonsa, ular o'z hayotini va o'z mamlakatini o'zgartiradigan kattalarga aylanadi[1].

Biologiya sohasining yetuk metodisti, bo'lajak biolog-mutaxassisning kasbiy professiogrammasini yaratgan olima J.O.Tolipova biologiya o'qituvchisi modelida quyidagi jihatlarni asos sifatida qabul qiladi:

1. Biologiya o'qituvchisi yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, psixologik pedagogik va ilmiy-metodik tayyorgarlik va kasb-hunar madaniyatiga ega bo'ladi.

2. Biologiya o'qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy tayyorgarligini orttirishda ilmiy nazariy.

psixologik - pedagogik tarkibiy qismlar bilan uzviy ravishda ilmiy-metodik tayyorgarlikni amalga oshirish zarur.

3. O'qituvchining pedagogika oliy o'quv yurtida o'zlashtirgan barcha bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda xususiy metodik darajada, ya'ni biologiyani o'qitish jarayonida qo'llay oladi.

4. Yuksak kasb-xunar madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis o'zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik sanaladi[3].

Ta'lif innovatsiyasi ta'lif tizimi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni rivojlantirish tamoyiliga asosan hal qilishga qaratilgan yangicha shakl va metodlar, yondashuv va texnologik jarayonlarni tizimli qo'llash orqali sifat o'zgarishlariga erishish bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogik ta'lif innovations klasteri mavjud ta'lif va tarbiya sohasidagi muammolarni yechishda asosiy yechim sanaladi. Uzlusiz pedagogik ta'lifni klaster rivojlanish Chirchiq modeli, pedagogik ta'lifning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq zamonaviy talablar, tizimdagи muammolar va ularni hal qilishda ta'lif, fan va ishlab chiqarish bo'g'inxilar o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yetishmasligi bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida taklif etilgan.


Quyida "Odam va uning salomatligi" fani misolida Eshidim-ko'rdirni bajardim tamoyili asosidagi dars ishlanmasi berilgan. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishslash ko'nikmalari va ijodkorligi asosiy jihatlardan sanaladi.

8-sinfda yurakning tuzilishi mavzusi bo'lganida, darsda an'anaviy usuldan foydalangan holda yurakning tuzilmalari haqida gapiresh butun bir metodning "eshidim" qismini tashkil etsa, yurak sxemasi yoki modelini ko'rsatish bu metodning "ko'rdirm" qismi bo'lib, o'quvchilarda yurakning tuzilishi haqida tasavvur paydo bo'lganligi namoyon bo'ladi, ma'lumotni idrok qilish ancha qulay bo'ladi va bu bilimlarni mustahkamlash uchun o'quvchilarga yurak modelini o'z qo'llari bilan yasash ko'rsatmalarini berib, mustaqil amaliy ishni bajarishni topshiriladi. Bunda o'quvchilarning o'zlar model yaratib, vena va aorta tomirlar tuzilishi va joylashishini yaxshi bilishadi, bu jarayon biroz murakkab va shunday bo'lsada siz yaxshi natijaga erishishingiz mumkin, bu erda bolalarning ham mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi va boshqalar rivojlanadi. Ushbu metoddan ko'plab mavzularda faol foydalanish mumkin, chunki biologiyada juda ko'p turli shi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, vazifalar ijodkorlikni talab etadi.

Modellashtirish metodi. O'bekt yoki hodisani ularning modellari yordamida o'rganishdir. Biz modellarni ko'p uchratganmiz. Masalan, globus- yerning modeli, akvarium suv havzasining modeli. Tadqiqot davomida biz odam organlarini modelini yasab o'rganish orqali ijodkorlik va o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga katta e'tibor bergen holda olib bordik.

Modellashtirish - bu tadqiqotchiga ma'lumotlarga asoslanib, tabiiy jarayonlarni bashorat qilish mumkin bo'lgan usul.

Modellashtirish metodi nafaqat biologiya balki boshqa fanlar negizida ham o'sha o'miga ega. Masalan, matematik modellashtirish, fizik modellashtirish, texnologik modellashtirish. Ta'lim jarayonida bu metoddan keng qollaniladi. Bu metoddan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchini mantiqiy fikrlashga dars jarayonida o'rgangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'quvchida ichki imkoniyatlarni hissiyotlarni yuzaga chiqarishda katta ro'l o'yndaydi. Modellashtirish metodi samarali natija berish uchun oqituvchi mifik o'quvchilariga beriladigan topshiriqlarni aniq va batafsil yetkazib berish kerak. Shu bilan birga, o'quv faoliyatini har tomonlama nazorat qilish, natijalarni tekshirish va xulosa chiqarishga yordam berish kerak.

Tadqiqot davomida modellashtirish metodidan foydalanib, 8 - sinf uchun "Nafas olish organlarini modellashtirish" mavzusida amaliy mashg'ulot dars jarayonlarini o'tkazildi. Tanlangan mavzu uchun bu metod juda dolzarbdir, chunki bunda o'quvchilar o'zlar ijjodkorlik mahoratlarini yuzaga chiqaradilar. Dars maqsadlari:

♦ Ta'limiy: O'quvchilarda nafas olishning ahamiyati, nafas olish organlarining tuzilishi va ularning ahamiyati bilan tanishtirish bilan birga amaliy mashg'ulotlar bajarishda xavfzizlik qoidalariga rivoja etishga o'rgatish.

♦ Tarbiyaviy: O'quvchilarda nafas olishning ahamiyati, nafas olish organlarining tuzilishi va ularning ahamiyati bilan tanishtirish bilan orqali o'z salomatligini asrash, giginek, tarbiya berish.

♦ Rivojlantiruvchi: mustaqillikni, mantiqiy fikrlashni, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, bir birini fikrini hurmat qilish, notiqlik va boshqalarni rivojlantirish.


Vazifalar:

- Mavzuni o'quvchilar uchun qulay va tushunarli tilda tushuntiring
- O'quvchilarning yangi mavzuga qiziqishini oshirish. Darsni ijodiy o'tkazish.
- Dars davomida lokal texnologiyalardan foydalanish (klasterlar, jadvallar, rasmlar va boshqalar)
- O'quvchilarning intellektual va mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, biologiyani o'rganish uchun motivatsiyani shakllantirish.
- Kerakli jihozlar bilan ishslash qoidasini o'rgatish.
- Qo'yilgan maqsadlarga erishish
- Pedagogik texnologiyalardan foydalanish

- O'quvchilar kutgan natijaga erishish

Darsning birinchi qismi - Eshitdim. Bu yerda o'quvchi og'zaki tarzda ma'ruza bilan tanishadi.

Nafas olish organlariga - burun bo'shlig'i, hiqildoq, kekirdak (traxeya), bronxlar, o'pkalar va plevra pardalari kiradi.



35-rasm. Nafas olish tiziminig tuzilish

Burun bo'shlig'i

- To'siq bilan ikkiga bo'lingan.
- Ichki yuzasi shilimshiq parda bilan qoplangan.
- Ichki yuzasi kiprikli epiteliy bilan qoplangan.
- Ichki yuzasida mayda bezchalar bo'lib, ulardan havoni tozalash vazifasini bajaruvchi shilimshiq suyuqlik ajraladi.

Hiqildoq

- IV—VI bo'yin umurtqalari ro'parasida joylashgan.
- Havo o'tkazuvchi nafas yo'li.
- Tovush hosil qiladigan ovoz apparati.
- Ichki qavati tukli shilimshiq pardadan iborat.
- Devori esa tog'ay va muskullardan tashkil topgan.
- Ichki qavatining o'ttasida tovush boyamlari va muskullari joylashgan.

Kekirdak (traxeya)

- VI—VII bo'yin umurtqalari ro'parasidan boshlanib, V ko'krak umurtqasi ro'parasigacha davom etadi
- 9—13 sm gacha yetadi.

Bronxlar

- V ko'krak umurtqasi ro'parasida kekirdakning ikkiga (o'ng va chap bronxlarga) to'linishidan hosil bo'ladi.

Bronxlar daraxt singari o'pkaga kirib shoxlanadi.

Kekirdak va bronxlar nafas yo'li hisoblanib, ular havoni ilitib, namlab, mayda chang zarrachalaridan tozalab, o'pka alveolalariga o'tkazadi.

O'pka

- Bir juft bo'lib (o'ng va chap o'pka), konusimon tuzilgan.

O'ng bo'lak 3 qismli, chap bo'lak 2 bo'lakli.

O'pkaning o'ttasida: kekirdak, qizilo'ngach, qon tomirlari, ayrisimon bez, nerv tozialari, limfa tomirlari va tugunlari hamda yurak joylashgan.

O'pkalar pastdan: diafragma bilan chegaralangan.

O'pkalar orqadan: umurtqa pog'onasi bilan chegaralangan.

O'pkalar oldingi tomondan: to'sh suyagi va atrofidan qovurg'alar bilan chegaralangan.

O'pka alveolalari

Gaz almashinushi jarayoni kechadi.

Devori bir qavatli epiteliy to'qimasidan iborat

Atrofi mayda qon tomirlari — kapillarlar bilan to'rsimon shaklda o'ralgan.

Soni ikkala o'pkada 750 mln. atrofida bo'ladi.

Umumiy sathi 100 m².

Plevra pardasi

O'pkalar tashqi tomondan plevra pardasi bilan o'ralgan.

- U ikki qavatdan (ichki va tashqi) iborat bo'lib, ular orasida torgina plevra bo'shlig'i hosil bo'ladi.

- Plevra bo'shlig'idagi bosim atmosfera bosimidan past bo'lib, u nafas olib-chiqarishda o'pkaning kengayib torayishiga qulaylik tug'diradi.

Ovoz apparati

- Baland gapirganda yopiq holatda, pichirlab gapirganda yarim ochiq holatda, jum torganda uchburchak shaklda ochiq holatda bo'ladi.

Ovozning o'tkirligi ovoz boyqlarining kalta yoki uzun bo'lishiga bog'liq.

Ayollarda ularning uzunligi o'rtacha 18—20,

Erkaklarda 20—22 millimetrr.

Darsning ikkinchi qismi "Ko'rdim".

O'quvchilar uchun oltin qoida mavjud bo'lib: "O'quvchilar sezib idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, albatta sezgi vositasi bilan, ya'ni ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni qulq bilan eshitib, hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni ta'tib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak" deya ta'kidlaydi Yan Amos Komenskiy.

Ko'rdim bosqichida amaliy mashg'ulotni olib borilish tartibi tushuntiriladi. Kerakli jihozlar bilan tanishtiriladi.

Kerakli jihozlar;

- 3 dona shar,
- naycha 2 dona,
- 1 martalik idish,
- skoch, qaychi.




36-rasm. Ko'rdim bosqichi uchun kerakli jihozlar

O'quvchilarga qanday ishlash tartibi va nafas olish organini qanday qili modelini yasash haqida tushuntirib beriladi. Bu qismda o'quvchilar ko'rish qobiliyatini orqali mashg'ulotlar tartibini eslab qolishlari kerak. O'quvchilarning diqqat e'tiborlarini mashg'ulotga qaratadilar. Bu o'quvchilarda diqqat jamlashi qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.



78



37-rasm. Ko'rdim bosqichining bajarilish usuli;

Biologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar kognitiv faoliytkni oshirish shakllaridan biridir. Ular o'quvchilarga turli biologik ob'ektlar va jarayonlar bo'yicha zaruriy tadqiqot kuzatishlarini olib borish, tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish yoki umumlashtirish imkonini beradi. O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarni bajarishda rivojlanishi uchun o'qituvchining muammoni aniqlagan va maqsad qo'yishni ifodalagan kirish suhbatini muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotni tushuntiradi, ko'rsatmalar kartochkalar yoki topshiriqlarni tarqatadi, kuzatishlar natijalarini qayd etish shaklini (matn yozuvli, diagramma, jadval) ko'rsatadi, xulosalar va umumlashtirish uchun muammoli savollar beradi. Ko'rsatma mazmunida muammoli savollarning mavjudligi o'quvchilarning tadqiqot faoliyatiga kognitiv qiziqishini faoltashtirishga imkon beradi.

79

Biologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish o'quvchilarni bevosita darsda materialni samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarni tabiiy narsa va hodisalarini bilish metodlari bilan tanishtirishga imkon beradi.

Amaliy mashg'ulotlar bilan olib boriladigan darslar biologiyani o'qitishda o'qitish va tarbiyalash nuqtai nazaridan juda qimmatlidir, chunki, birinchidan, amaliy mashg'ulotda olingan bilimlar yaxshi esda qoladi va uzoq vaqt xotirada saqlanadi; ikkinchidan, o'quvchilar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki joni tabiyat ob'ektlarini bevosita o'rganish orqali mustaqil ravishda egallaydilar; uchinchidan, jarayonida o'quvchilar bir qator amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydilar; o'quvchilarda tabiatni o'rganishiga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi; ular o'quvchilarga ishni ma'lum bir natijaga olib kelishga o'rgatadi, ongi mehnat intizomini tarbiyalaydi.

uchinchi qism - "Bajardim"bosqichida

Bu bosqichda albatta o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilarning o'zları amaliy mashg'ulotlarni bajarishadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar nafas olish organlarining modelini yasaydilar. Berilgan topshiriqlarni bajarish, organizmlarni organlarini o'rganish, tajribalar o'tkazish orqali o'quvchilar mustaqil ravishda foydali ma'lumotlarni olishadi.

Bu darslikda yozilgan va o'qituvchi aytgan va aynan ular ishongan bilimlariga ishonch hosil qilishadi. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, laboratoriya ishlarni bajarish, tajribalar o'tkazish, kuzatish, amaliy fikrlashni, ish natijalariga talabchanlikni rivojlantiradi. Nazariyani amaliyotda sinab ko'rish, ma'lumotni tushunish va ob'ektiv baholash qobiliyati o'quvchilar uchun kundalik amaliy faoliyatida foydali bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish tadqiqot metodidan foydalangan holda olib borish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu metod orqali o'quvchilarda qanday hususiyatlar shakllanish darajalarini quyidagicha amalgalashadi;

- o'quvchilarda kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirish.
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va ularni tahlil qilish
- o'quvchlarda jamoa bo'lib ishlash, erkin ochiq o'yash va fikrlarni bemalol bayon etish ko'p fikrlar orasidan to'g'risini tanlab olishga o'rgatish
- o'rganganlarini hayotda tatbiq etishdan iboratdir

"Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyoliga binoan ta'lif mazmuni va sifatini oshirish bo'lajak o'sib borayotgan yoshlarda faoliyot, etakchilik, o'zini anglash, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.



38-rasm. Bajardim bosqichining amalga oshirish usuli

Tarbiya va o'qitish metodikalari, axborot-komunikatsiya texnologiyalari, ta'lif jarayonida zamonaliv pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarga ega bo'lgan, o'z kasbiga sadoqatli yuqori bilim salohiyatga ega bo'lgan professional pedagog kadrlarni tayyorlash ta'lilda asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarning erkin fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, nimadir o'zgartirish demakdir.

Novatsiya-pedagogik jarayonni madernizatsilash va takomillashtirishga yo'naltirilgan yangilik sanalsa, innovatsiya esa-pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarishni sifat o'zgarishiga olib keladigan g'oya va jarayon bo'lib, yangiliklarni ta'lif jarayoniga tadbiq etadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ta'lif sifatini oshirish va o'quvchilarni darslarga qiziqishlarini oshirish maqsadida interfaol uslublardan foydalanildi.

Loyiha natijalarini baholash mezonlari o'quv jarayonining istalgan natijalari (o'quv natijalari) va loyiha doirasida yaratilgan ularga erishish shart-sharoitlari (loyiha mahsulotlari) orqali aniqlanadi. Ko'rsatkichlar esa tashxislash mumkin (loyiha mahsulotlari) mashg'ulotning xususiyatlarini namoyon qiladi. Loyiha mezonlari bazarini bo'lgan natijalarning xususiyatlarini namoyon qiladi. Loyiha mezonlari bazarini shakllantirishning asosiy belgilari quyidagilar:

- 1) ta'lif jarayonining maqsadi (kutilayotgan natija) ning o'ziga xosligi va diagnostikasi;
- 2) ta'lif jarayoni natijasini tashxislash usulini to'g'ri tanlash;
- 3) loyiha mahsulotlarining namunalar va umumqabul qilingan talablarga muvofiqligi;
- 4) muayyan sharoitlarda mavjud madaniy, yangilik bilan solishtirganda loyiha mahsulotlari yangilik darajasini hisobga olgan holda;
- 5) loyiha mahsulotlarining amaliy ahamiyatini hisobga olish-mahsulotning boshqa sharoitlarda undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Pedagogik – innovatsion loyiha uch bosqichda tashkil etilgan bo'lib, nazariyani amaliyat bilan bog'lash imkoniyatini beradi. 1-bosqichda talabalar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimning 40-50% ni o'zlashtirilgani, 2- bosqichda esa talabalar tomonidan 60-70% bilimlarning o'zlashtirilgani aniqlansa, oxirgi bosqichda ta'lif samarasini ko'rsatkichi 80-90% ga yetishi prognozlanadi. Loyihada bosqichda ta'lif samarasini ko'rsatkichi 80-90% ga yetishi prognozlanadi. Loyihada qatnashgan talabalarning egallagan bilim koeffitsenti statistik ma'lumotlar asosida isbotlanadi.

I-jadval

Tabiiy fanlar fakultetida fanlarni “Eshitdim-ko'rdim-bajardim” tamoyili asosida baholash mezonlari

Nº	ESHITDIM	KO'RDIM	BAJARDIM
Tamoyil tahlili	Tayyorlangan audio, videodars to'liq ma'ruza mashg'ulotining mazmunini yoritib berishi lozim	Amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari pedagog - talabalar ishtirokida birga bajariladi va mr 4 formatda tayyorlanadi	Berilgan topshiriq talaba tomonidan to'liq mustaqil ravishda bajariladi va mr 4 formatda tayyorlanib, vazifa mustaqil ta'lif shaklida topshiriladi
A'lo (5)	Pedagog tomonidan tayyorlangan	Pedagog va talabalar tomonidan tayyorlangan	Talabalar tayyorlangan mashg'ulot 86-100 %

	mashg'ulot 86-100 % to'liq o'zlashtirilgan	mashg'ulot 86-100 % to'liq o'zlashtirilgan	to'liq o'zlashtirilgan
Vazshi (4)	Pedagog tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 71-85 % to'liq o'zlashtirilgan	Pedagog va talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 71-85 % to'liq o'zlashtirilgan	Talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 71-85 % to'liq o'zlashtirilgan
Qoniqarli (3)	Pedagog tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 56-70 % to'liq o'zlashtirilgan	Pedagog va talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 56-70 % to'liq o'zlashtirilgan	Talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 56-70 % to'liq o'zlashtirilgan
Qoniqarsiz (2)	Pedagog tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 55 % dan past o'zlashtirilgan	Pedagog va talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 55 % dan past o'zlashtirilgan	Talabalar tomonidan tayyorlangan mashg'ulot 55 % past o'zlashtirilgan

Pedagogik ta'lif klasterida quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish imkoniyati tiladi. Bunda, o'quvchi-talabalarning ijodkorligi, ilmiy-kognitiv bazaning yaxshi skantligi, berilgan topshiriq va vazifalarni mustaqil bajara olish imkonimlari, ulardagagi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi asosida namoyon etilishi.

Birinchi qismida, nazariy bilim, klassik mezonlari “hajmini” va foydalanish imkonini o'rgangan va qilingan narsadan “sifatini” baholash. Bunday holda, “hajm” uchun klassik uch bosqichli bo'limmadan foydalanish mumkin:

- 1) yetarli emas (50% dan kam);
- 2) yetarli (50 dan 80% gacha);
- 3) io'liq mos (80% dan ortiq).

Quyida tamoyilning fanlar yo'nalishlari va kesimida olib boriladigan pedagogik tajriba sinov ishlari foydalaniladigan mezonlari keltirilmoqda. Birinchi bosqich uchun fan bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish (100% dan ortiq tartibga solinishi mumkin). Har bir daraja uchun talabalar mos ravishda “qoniqarsiz”, “qoniqarli” va “yaxshi”, “yaxshi” va “a'lo”ga bo'linadi. O'rganilgan narsalarning sifati 2 dan 5 gacha bo'lgan sinonimlar bilan tahlilanishi kerak:

- asosiy tushunchaga ega emas;
- faqat tasavvurga ega;
- faqat asosiy qoidalarni biladi;
- noaniq takrorlash;
- to'liq qayta hikoya qilish;
- asosli taqdimot.

"Muammoni hal qilish" bandi quyidagi mezonlarni nazarda tutadi:

- 1) "miqdor" - yetarli (50% dan ortiq) yoki hal qilinganlar soni kam (50% dan kam);

2-jadval

"Eshidim-ko'rdim-bajardim" bosqichlarining ta'lrim shakllarida aks etishi (foizlarda)

	10	15	30	50	80
laboratoriya	0	20	30	50	80
ma'ruza	0	20	40	60	80
	0	20	40	60	80
ma'ruza	amaliy	laboratoriya	mustaqil		
bajardim	0	50	50	80	
ko'rdim	20	30	35	10	
eshidim	80	20	15	10	

2) "sifat"- o'zi qaror qabul qiladi, yo'l-yo'riqdan so'ng qaror qabul qiladi, faqat o'qituvchining yo'nalish beruvchi savollaridan keyin qaror qabul qiladi;

3) "qiyinchilik darajasi" - qoniqarli, kuchaytirilgan, yuqori.

Ijtimoiy fanlar uchun "Muammolarni hal qilish" bandi vaziyatlarni muammolarni tahlil qilish sifatida ko'rib chiqilishi, yoki umaman chiqarib tashlanishi mumkin.

Qo'shimcha savollar, ularning nazariy yoki amaliy mazmuni va nazorat qilinadigan ma'lumot miqdori ahamiyatiga qarab, 2 dan 5 gacha baholanadi.

An'anaviy ma'noda yakuniy ball uning barcha tarkibiy qismlarining iqtisadiyati qayd qilinishi sifatida aniqlanadi yoki nazoratning turli bosqichlari uchun qayd qilinishi kiritish mumkin. Ushbu belgi "yozuvlar kitobiga" kirishadi.

Daholashda har xil kompetensiyalar har bir o'quvchining shaxsiyatlari uchun munosabat bildirishi mumkin.

Talabaning axborot – uslubiy kompetensiyalari guruhiga quyidagilar kiritilishi ular erkin fikrlash, mustaqil tafakkur, dunyoqarash, ijodiy yondoshish.

Fikrlash mustaqilligi aqliy faoliyatning namoyon bo'lishiga qarab 2 dan 5 gacha baholanadi:

- passiv (yetakchi savollardan keyingina javob beradi);
- fiziq (dalilarni ilgari suradi, mantiqiy aloqalarni aniqlaydi, xulosalarni shaklantiradi);
- giperaktiv (farazlar tuzadi, o'qituvchi bilan munozaraga kirishadi, munozaralar yondashuvlardan foydalanadi va hk).

Talabaning dunyoqarashi 2 dan 5 gacha bo'lgan darajalarda, kasbiy faoliyat uchun o'quv materialining o'rni va ahamiyatini anglash darajasini belgilashni, fikrlashni fanlar va hayot bilan aloqani o'rnatishni o'z ichiga oladi.

Juddiy yondashuv 2 dan 5 gacha bo'lgan darajalarda talabaning muammolarni ajratishi, o'quv materialining o'rganilgan hajmining turli bo'limlari uchun bog'liqlik va bog'liqliklarni o'rnatishi va muammoni hal qilish yo'llarini belgilashni bilan belgilanadi. Bundan tashqari, bu yerda fikrlashning mustashuvchanligi, tanqidiyligi, kombinatorligi, konstruktivligi kabi fazilatlarini qayd etilishi mumkin.

3.16. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda tashkil etilgan innovatsion muhit sharoitini yaratish, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyatga tadbiq etish orqali o'quvchilar ishlashini shaxsdonkorligini shakllantirish, samaradorlikka erishish uchun maqsadli ishlashni o'tkazish va izlanishlar olib borish belgilab olindi. Tadqiqot ishlashida "Tashabbuskor talabalar" loyihasi doirasida Chirchiq shahridagi 11-moskva o'rta ta'lim maktab rahbar-xodimlari, hamda o'qituvchilar bilan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yuzasidan va muktabdagisi mavjud muammolarni so'rovnomalar asosida o'rganib chiqildi.

Tadqiqotlar o'tgan 2019-2020 o'quv yilining oktabr oyida boshlandi. Tadqiqot uchun ushbu umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilarini tanlab olindi. Maktabda 4 ta 7-sinf bo'lib, shundan 7-“A” va 7-“B” sinflari tajriba sinfi, hamda 7-“V” va 7-“G” sinflari nazorat sinflari sifatida tanlandi. Tadqiqot boshida ushbu sinflar o'quvchilaridan birinchi chorakda olgan bilim ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida nazorat testlari olindi va tahlil qilindi. Tajriba sinfi o'quvchilariga zoologiya fani innovatsion pedagogik texnologiyalar, audio va video darslar, virtual laboratoriylar, mavzularga oid taqdimotlar, tarqatma materiallarda foydanlanilgan holatda dars mashg'ulotlari olib borildi.

Dastlabki tabiiy fanlarni pedagogik ta'lif klasteri asosida tashkil etish “Maktab laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchasida tajriba sinov ishlari 2019-2020 o'quv yilining oktabr oyidan boshlab Chirchiq shahridagi 11-umumiy o'rta ta'lim mакtabining 7-sinflarida olib borish boshlandi.


O'quvchilarning zoologiya fani bo'yicha bilimlarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganish asosida tajriba va nazorat sinflari tanlab olindi. Ushbu maktabda A, B, V, G sinflar mavjud. Shunga ko'ra 7-“A” va -“B” sinflari **tajriba** va 7-“B” va 7-“G” sinflari **nazorat** sinflari sifatida qabul qilindi. Sinflarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari boshlang'ich nazorat testlari asosida aniqlab olindi.

7-“A” va 7-“B” sinf o'quvchilariga zoologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik ta'lif texnologiyalaridan, elektron resurslar, har bitta mavzu bo'yicha audio va video darslar, virtual laboratoriylar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish asosida dars mashg'ulotlari olib borildi. 7-“B” va 7-“G” sinflarda esa an'anaviy tartibda dars mashg'ulotlari o'tkazildi. O'quvchilar bilimi II-chorak yakuniy natijalariga ko'ra qiyoslandi. O'quvchilarning bilimini o'rganish yuzasidan ular bilan olib borilgan test natijalari choraklarda o'sish borligini tasdiqladi. 7-“A” tajriba sinfining sifat ko'rsatkichi ikkinchi chorakning kirish testida 58 % bo'lsa, ikkinchi chorakning chiqish testida 77% ga va 7-“B” tajriba sinfining sifat ko'rsatkichi ikkinchi chorakning kirish testida 57 % bo'lgan bo'lsa, ikkinchi chorakning chiqish testida 79% ga oshganligi ya'ni sifat ko'rsatkichi 7-“A” tajriba sinfida 19% ga, 7-“B” tajriba sinfida 21%ga ortganligi ma'lum bo'ldi.

Pandemiya boshlanishi munosabati bilan o'quv yilining III-VI chorak darslari tajriba sinfida masofaviy ta'lif shakliga o'tkazildi. Mavzularga oid ma'lumotlar o'quvchilarga onlayn tarzda yetkazildi va mashg'ulotlar olib borildi.

3-jadval
O'quvchilarning 2019-2020 o'quv yili I va IV chorak kesimidagi sifat ko'rsatkichlari

Sifat	O'quv chilar soni	Sifat ko'rsatkich lari 1-chorak	Sifat ko'rsatkich lari 2-chorak	Sifat ko'rsatkich lari 3-chorak	Sifat ko'rsatkich lari 4-chorak
7-“A”	31	58%	77%	78%	79%
7-“B”	33	57%	79%	77%	76%
7-“V”	33	57%	62%	68%	70%
7-“G”	34	56%	59%	65%	71%




Tajriba sinf o'quvchilarining talaba-o'qituvchilar tomonidan olib borilgan dars mashg'ulotlari bo'yicha fikrlarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalar natijalari o'rganilganda tashabbuskor talabalar tomonidan o'tkazilgan darslar o'quvchilarda biologiya fanlariga bo'lgan qiziqishlarining oshiganligi,

tabiiy-ilmiy savodxonlikning shaklanishiga zamin yaratayotganligi aniqlandi. O'quvchilar ota-onalari tomonidan ham o'tilayotgan darslar bo'yicha ijobiliy fikrlar bildirildi.

4-jadval

O'quvchilarning 2020-2021 o'quv yili I-II choragidagi sifat ko'rsatkichlari

Sinflar	O'quvchilar soni	Sifat ko'rsatkichlari	Sifat ko'rsatkichlari
8 – "A" tajriba sinf	30	80%	82%
8 – "V" nazorat sinf	33	70%	71%



39-rasm. O'quvchilarning 2020-2021 o'quv yilidagi sifat ko'rsatkichlari

Tabiiy fanlar yo'nalishlarida pedagogik ta'lim innovatsion klasterining "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchasi pedagogik tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili natijasi shuni ko'rsatadi, o'quvchilarning biologiya fanlariga bo'lgan qiziqishlari, nazariy bilimlarini oshirish, hozirgi zamon fan va texnologiyasini o'rganishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish, ularni ijodkorlikka undash, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash malakasini hosil qilish samaradorligini oshirish uchun zamin yaratadi.

Tajriba sinov ishlarini olib borish jarayonida tahlili va natijalarini dasturga sanal qilgan holda o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashni shakllantirish, ijodkorligini rivojlantirish, kreativligini yuzaga chiqarishga doir o'quv uslubiy qo'llanmalar, didaktik materiallar va o'quvchilarning bilim, konikma, malaka hamda bilim samaradorligini o'zlashtirish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlarni o'rnatishi tahlili asosida baholash rejalab olingan edi.

Tadqiqot olib borish davomida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogika va binigiga o'qitish metodikasi sohasiga doir yaratilgan metodik qo'llanmalar va javoyiyalar bilan nazariy tanishib chiqish asosida, amaliy tajriba –sinov ishlari ishlili etildi. Tajriba sinov ishlarining samaradorligi va olingan natijalarni statistik ishlili ishlab chiqildi. 2021-2022 o'quv yilida 63 nafar o'quvchilar bilan birgalikda tajriba sinov ishlari olib borildi.

Tanlab olingan sinfdagi tajriba –sinov ishlarining natijalari o'quvchilarda ijodkorlikning shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlariga asosan tajriba va nazorat sinflarida tajriba boshida va tajriba oxirida olingan qiymatlar bilan hisoblandi. 2021-2022 o'quv yilidagi o'quvchilarning biologiya fanidan bilim samaradorlikning rivojlanganlik sifat ko'rsatkichlari 6 - jadvallarda ko'rsatilgan.

Tajriba sinfining o'quv yili davomidagi samaradorlik ko'rsatkichi nazorat sinflari foiziga nisbatan 7 foizga yuqori bo'lishi isbotlandi. Ushbu sinfning yil davomidagi sifat darajasi ilk nazorat xulosalari bilan qiyoslanganda 10 foizga o'rnatilgini korishimiz mumkin.

5-jadval

Pedagogik tajriba –sinov natijalari samaradorligi

Gruohlar ta's sonlar	Tajriba Sinf 8 – "B" N ₁ =33				Nazorat sinfi 8 – "V" N _N =30			
	"A'lo"chi o'quvchilar soni	"Yaxshi" o'zlashtiradigan o'quvchilar soni	"o'rtal" bahoga oqiyigan	"qoniqarsiz" bahoda o quydigan o'quvchilar soni	"A'lo"chi o'quvchilar soni	"Yaxshi" o'zlashtiradigan o'quvchilar soni	"o'rtal" bahoga oqiyigan o'quvchilar soni	"qoniqarsiz" bahoda o quydigan o'quvchilar soni
I-chorak	8	11	14	-	6	12	12	-
II-chorak	9	11	13	-	6	13	11	-
III-chorak	9	13	12	-	7	12	11	-
IV-chorak	8	12	13	-	7	12	11	-

Baholarning o'rtacha arifmetik qiymati	$X_T^*=4$	$X_N^*=3.86$
Samaradorlik koeffitsenti	$\eta=1.03$	
Tanlanma dispersiyasi	$D_T=0.66$	$D_n=0.62$
O'rtacha qiymatlarning standart hatolari	$S=0.81$	$S=0.76$
X^* ning ishonchilik oraliq'i	$X=3.19$	$X=3.1$
Styudend statistikasi		$T=0.7$
Statistik ozodlik darajasi		$K=20$
Kriteriya xulosasi		H_1 gipoteza qabul qilinadi

Tajriba boshida o'tkazilgan tajriba va nazorat guruhlarning o'rtachasi qiymati

$$X_T^* = \frac{1}{33} * (9*5 + 12*4 + 13*3) = 4$$

$$X_N^* = \frac{1}{30} * (7*5 + 12*4 + 11*3) = 3.86$$

Samaradorlik koeffitsenti

$$\eta = \frac{4}{3.86} = 1.03$$

Tajriba va nazorat sinflaridagi tanlanma dispersiyasi va standart hatolik qiymatlari

$$D_T = \frac{1}{33} * (9 * (5 - 4))^2 + 12 * (4 - 4)^2 + 13 * (3 - 4)^2 \approx 0.66$$

$$S = \sqrt{D_T} = \sqrt{0.66} = 0.81$$

$$D_N =$$


$$\frac{1}{30} * (7 * (5 - 3.86))^2 + 12 * (4 - 3.86)^2 + 11 * (3 - 3.86)^2 \approx 0.58$$

$$S = \sqrt{D_T} = \sqrt{0.62} = 0.76$$

6-jadval

O'quvchilarning 2021-2022 o'quv yili I-IV choraklardagi sifat ko'rsatkichlari

Sifat	Choraklar soni	O'quvchilar soni	Sifat ko'sratgichlari chlari	"A'lo"chi o'quvchilar soni	"Yaxshi" o'zlashtiradi gan o'quvchilar soni	"o'rta" bahoga oqiydigan o'quvchilar soni	"qoniqarsiz" bahoda o'quydigan o'quvchilar soni
I – "B"	I	33	58%	8	11	14	-
	II	33	61%	9	11	13	-
	III	33	67%	9	13	12	-
	IV	33	61%	8	12	13	-
II – "A"	I	30	60%	6	12	12	-
	II	30	63%	6	13	11	-
	III	30	63%	7	12	11	-
	IV	30	63%	7	12	11	-



40-rasm. O'quvchilarning 2021-2022 o'quv yili I-IV choraklardagi sifat ko'rsatkichlari diagrammasi

2022-2023 o'quv yilida tadqiqot davomida 56-nafar o'quvchilar ishtiadi etgan bo'lib, tajriba-sinov ishlari natijalari o'quvchilarda biologiya faniga bo'lgan kreativlikni rivojlanganlik va shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlariga asosan tajriba va nazorat sinfida tajriba boshida va tajriba yakunida olingan qiymatlar bilan taqqoslanganida tajriba sinflarining samaradorlik ko'rsatkichi nazorat sinflari ko'rsatkichiga nisbatan 8 foizga yuqori ekanligi statistik usullar yordamida o'rganilib chiqildi.. Tajriba sinfining yil yakunidagi sifat ko'rsatkichi 8 sınıf birinchi choragi natijalari bilan taqqoslanganda 8 foizga oshganligi kuzatildi.

7-jadval

Pedagogik tajriba –sinov natijalari samaradorligi

Guruqlar Me'zonlar	Tajriba Sinf 7-“B” N _T =27			Nazorat sinfi 7-“V” N _N =29			
Rivojlanganlik darajasi	“A'lo”chi o'quvchilar soni	“Yaxshi” o'zlashtiradigan o'quvchilar soni	“o'rta” bahoga oqiydigan o'quvchilar	“qoniqarsiz” bahoda o'quvchilar soni	“A'lo”chi o'quvchilar soni	“Yaxshi” o'zlashtiradigan o'quvchilar soni	“o'rta” bahoga oqiydigan o'quvchilar
I-chorak	7	9	11	-	6	13	10
II-chorak	7	10	10	-	7	12	10
III-chorak	8	11	8	-	7	11	11
IV-chorak	9	10	8	-	8	10	11
Baholarning o'rtacha arifmetik qiymati	X _T [*] =4.3			X _N [*] =3.8			
Samaradorlik koyffitsenti	$\Pi=1.03$						
Tanlanma dispersiyasi	D _T =0.62			D _N =0.58			
O'rtacha qiymatlarning standart hatolari	S=0.78			S=0.8			
X ning ishonchlik oraligi	X=3.15			X=3.11			
Styudend				0.8			

statistikasi	
statistik ozodlik darajasi	21
Kriteriya tulosasi	H ₁ gipoteza qabul qilinadi

**Tajriba boshida o 'tkazilgan tajriba va nazorat guruhlarining
o'rtacha qiymati**

$$X_T^* = \frac{1}{27} * (9*5+11*4+8*3)=4.03$$

$$X_N^* = \frac{1}{29} * (8*5+10*4+11*3)=3.89$$

Samaradorlik koefisenti

$$\Pi = \frac{4.3}{3.89}=1.03$$

Tajriba va nazorat sinflaridagi tanlanma dispersiyasi va standart xatolik qiymatlari hisoblasak

$$D_T = \frac{1}{27} * (9 * (5 - 4.03))^2 + 10 * (4 - 4.03)^2 + 8 * (3 - 4.03)^2 \approx 0.62$$

$$S = \sqrt{D_T} = \sqrt{0.62} = 7.8$$

$$D_N = \frac{1}{29} * (8 * (5 - 3.89))^2 + 10 * (4 - 3.89)^2 + 11 * (3 - 3.89)^2 \approx 0.64$$


$$S = \sqrt{D_N} = \sqrt{0.64} = 0.8$$

8-jadval

**O 'quvchilarning 2022-2023 o 'quv yili I-IV chorak kesimidagi sifat
ko'rsatkichlari**

Sinf	Chorakl si	O'quvc hilar soni	Sifat ko'rsatg ichlari	“A'lo” chi o'quvch ilar soni	“Yaxshi” o'zlashtir adigan o'quvchil ar soni	“o'rta” bahoga oqiydigan o'quvchilar soni	“qoniqarsiz” bahoda o'quvchilar soni
I - “B”	I	27	59%	7	9	11	-
tajriba	II	27	63%	7	10	10	-
sinif	III	27	70%	8	11	8	-
	IV	27	70%	9	10	8	-
I - “V”	I	29	65%	6	13	10	-
nazorat	II	29	65%	7	12	10	-
sinif	III	29	62%	7	11	11	-
	IV	29	62%	8	10	11	-

Statistik tahlillar natijalariga ko'ra umumiy ikki yil davomida tajriba sinfining o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat sinfiga nisbatan 7 foizga yuqori ekanligi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi ki o'quvchilarda dars davomida ijodkorlikni shakllantirish bilim samaradorlikni rivojlantirishga olib keluvchi samarali yo'l ekanligini isbotlaydi. O'quvchilarda amaliy mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada oshgan bo'lsada, eng asosiysi oliy talim talabasi bo'lishga, o'rganganlarini o'z hayotida qo'llashga, mustaqil fikrini bayon eta olishga hamda ijodiy qobilyatlarining o'sishiga ijohiy ta'sir etidi degan xulosaga keldik.



41-rasm. O'quvchilarning 2021-2022 o'quv yili I-IV choraklardagi sifat ko'sratgichlari diagrammasi

Natijalar umumlashtirilib, tajriba va nazorat sinflaridan olingan ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro taqposlandi, matematik statistic (Styudent) mezonini metodi asosida qayta ishlandi. Tajriba -sinov davrida olingan natija va xulosalar dissertatsiya shaklida rasmiylashtirildi.

Quyida uzlusiz ta'lim bosqichlari bilan ta'lim klasteri subyektlarining o'zaro bog'liq ravishda olib borgan tadqiqotlari va ish jarayonlari keltirilgan.



41-rasm. Magistrlar dissertatsiyalarida PTIK negizida uzliksiz ta’lim integratsiyasidan lavhalar.

3-bob bo'yicha umumiy xulosalar

1. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida tabiiy fanlar (biologiya va geografiya) ta'limini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida ta'lim sifatini oshirish pedagogik ta'lim innovatsion klasteri "Eshidim-ko'rdir-bajardim" tamoyiliga asoslangan bo'lib, oliv ta'lim muassasasining umumta'lim maktablari (tabiiy fanlarni o'qitish)ga metodik yordam ko'rsatish asosida amalga oshirildi.
 2. Ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi"ni tashkil etish, hamda bitiruvchilarни kasbyga yo'naltirish orqali oliv ta'limga qamrovini oshirish, dars mashg'ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasiga "Eshidim-ko'rdir-bajardim" tamoyili tadbiq etildi.
 3. Pedagogik ta'lim sohasidagi integratsiya, innovatsiya, uzviylik, usluksizlik, izchillik, samarali vorisiylikni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. "Tashabbuskor talabalar" loyihasi doirasida Chirchiq shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktab rahbar-xodimlari, hamda o'qituvchilar bilan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yuzasidan va maktabdagi mayjud muammolar so'rovnomalar asosida o'rganib chiqildi. O'tkazilgan tajriba-sinov natijasilarini asosida o'zlashtirish, ta'lim sifat ko'rsatkichlarining o'sishi tahlil qilindi.
 4. Ilmiy asoslangan innovatsion loyihalarning tajriba-sinov jarayonlarini tashkil qilish, pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o'rta ta'lim, oliv

ta'limhamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanish imkoniyatini yaratish orqali tabiiy ilmiy savodxonlik markazining faoliyati yo'lga qo'yildi.

5. Pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash, ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish, hamda ta'limga tatbiq etish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori, 2017 yil 6 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori, Toshkent, 2017 yil 30 sentabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3304-sonli Qarori, Toshkent, 2017 yil 30 sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829-sonli qarori. Toshkent, 2017 yil 14 mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori, Toshkent, 2017 yil 20 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni, 2018 yil 5 sentabr.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 12 avgustdag'i "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzlusiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4805-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-sonli Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.04.2021 yildagi 213-son Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori.

13. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'R-637-NOH Ta'lim to'g'risidagi qarori.
14. Mukhammedov, G., U. Khodjamkulov, and S. Toshtemirova. "Innovative cluster of pedagogical education". *Monograph*.-T.: University (2020).
15. Muhammedov, G., U. Xodjamqulov. "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'rif, taysif va tasnif. Ilmiy risola." T.: Universitet (2019).
16. Raximov.A.K., Saidova.D.S, Rasulova.O.O. "Maktab laboratoriya" tajriba maydonchasi – pedagogik ta'limda innovatsion klaster tamoyilini joriy etish // Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Chirchiq. 2021, №01, pp. 59-64.
17. Raximov.A.K., Saidova.D.B. "Innovation Cluster Of Pedagogical Education "As The Basis Of The Practice Base Education., Global Humanity Congress 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference, 2021, pp. 148-150.
18. Raximov.A.K., Nurmetov.X.S., M.Q.Tursunboyeva.O'rta talim uzlusizligi va uzyviligini takomillashtirishda klaster usulidan foydalanish. Uzlusiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal // Maxsus son, (ISSN 2091-5594), Toshkent, 2021, 95-99 b.
19. Raximov.A.K., Saidova.D.B. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish va baholash., "International scientific research conference" Belarus, international scientific-online conference, 2022. pp. 148-150.
20. Raximov A.K va boshqalar Ta'lim muammolari echimida pedagogik ta'lim innovatsion klasterning yangiliklari, istiqbollari va ahamiyati. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillar" xalqaro ilmiy – amaliy masofaviy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent: Tadqiqot. 2020 iyun. B. 156-158.
21. Raximov A.K., Boltaeva.M. M., Xoliqova. "Soya va makkajo'xorini birgalikda yetishtirishning qimmatli xo'jalik ahamiyatini o'rganish metodikasi(eshitdim, ko'rdim, bajardim) tamoyili asosida". Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Chirchiq, 2022, pp. 10-13.
22. Raximov.A.K. Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish zamon talabi // Academic research in educational sciences. Chirchik state pedagogical institute Tashkent region, Uzbekistan problems and solutions, June 25-26, 2021.Building 2a, istikbol street, pp. 210-214.
23. Raximov.A.K., Mirzayeva, N. A. Znacheniye mejdunarodníx otsenochnix programm (pisa, pirls) v razvitií yestestvenno-nauchnoy gramotnosti uchashixsya. Academic research in educational sciences // SJIF 2021:5.723, June 6, 2021, ARIES.UZ, ISSUE, ISSN:2181-1385 pp. 1526-1534.
24. Klaudiya, K., & Mirzayeva, N. A. (2022). O'zbekistonda tabiiy fanlarni o'qitishning steam metodikasiga asoslangan o'quv darslarni tashkil etishda "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(5), 51–69.
25. Mirzayeva N. A. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (chirchiq modeli) "Eshitdim-ko'rdim bajardim" tamoyili metodologiyasi // ReFocus. 2022. №1.
26. Mamirxanova A.M. Yestestvenno nauchnaya gramotnost obuchayushixsya v sredney shkole po rezul'tatam mejdunarodníx issledovaniy: sostoyaniye i puti povisheniya kachestva (na primere Kazaxstana), Mejdunarodniy jurnal prikladníx i fundamentalníx issledovaniy. – 2015. – № 6 (chast 1) – S. 128-131.
27. Xo'jamqulov.U.N. Maktab-laboratoriya uslubiy qo'llanma.- Chirchiq. 2019. 160 b.
28. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy - pedagogik muammo sifatida (pedagogik ta'limni klasterlashtirishning zarurati) // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2019. №10 (83).
29. Xodjamkulov, U. "Maktab laboratoriysi" uslubiy qo'llanma." Chirchiq- 2019 (2019).

ILOVALAR

I-ilova

“Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” loyihasi bo'yicha 2021-yil noyabr, dekabr oylarida master klass darslarida ishtirok etgan Toshkent viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining ro'yxati

N	Viloyat (tuman)	Maktab	F.I.Sh	Lavozimi	Fan yo'naliishi
1	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Ashirova Shaxnoza Nig'matullayevna	O'qituvchi	biologiya
2	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Pardayeva Gulbeka Saidovna	O'qituvchi	biologiya
3	Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Nurmatova Roza Maxanovna	O'qituvchi	biologiya
4	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Mirzayeva Olima Qudratovna	O'qituvchi	biologiya
5	Toshkent viloyati Qibray tumani	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Yuldasheva Gulnora	O'qituvchi	biologiya
6	Toshkent viloyati Olmaliq shahar	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Yuldasheva Ravza Tajiddinovna	O'qituvchi	biologiya
7	Toshkent viloyati Gazalkent shahar	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Ergashova Ra'no Mamerovna	O'qituvchi	biologiya

8	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Axmetova Marxamat Abdurajapovna	O'qituvchi	biologiya
9	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Fayziyeva Nodira To'yqulovna	O'qituvchi	biologiya
10	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Turg'unova Sayyora Abdusalomovna	O'qituvchi	biologiya
11	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Hasanova Gulchehra Abdurahmatovna	O'qituvchi	biologiya
12	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Ollaberganova Inobat Zafarovna	O'qituvchi	biologiya
13	Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani	54-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Toshtamova Ra'no Ergashevna	O'qituvchi	biologiya
14	Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani	34-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Tursunbayeva Marhabo Qurolbayevna	O'qituvchi	biologiya
15	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Xalilova Dilorom Menyobulovna	O'qituvchi	biologiya
16	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	Norboboyeva Hurriyat Saparaliyevna	O'qituvchi	biologiya

17	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	13-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Ahadova Mo'tabar Sayidjonovna	O'qituvchi	biologiya
18	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	11-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Oltmisheva Hamida Yigitaliyevna	O'qituvchi	biologiya
19	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	15-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Buranova Dilbar Xatamovna	O'qituvchi	biologiya
20	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	8-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Sherniyazova Damira	O'qituvchi	biologiya
21	Toshkent viloyati Bo'stonli q tumani	33-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Ochilova Dilrabo Do'smuradovna	O'qituvchi	biologiya
22	Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani	25-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Mamaraximova Jonsuluv	O'qituvchi	biologiya
23	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	25-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Ergasheva Gulandon	O'qituvchi	biologiya
24	Toshkent viloyati Angren shahar	5-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Fayzimatova Nilufar Halimjanovna	O'qituvchi	biologiya
25	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	17-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Muxamatkarimova Gavhar	O'qituvchi	biologiya

26	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	11-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Yarlaxabova Gulnoza	O'qituvchi	biologiya
27	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	43-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Axmadaliyev O'ktamjon Xomidjonovich	O'qituvchi	biologiya
28	Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani	10-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Raximova Munisa O'ktamboy qizi	O'qituvchi	biologiya
29	Toshkent viloyati Bo'stonli q tumani	6-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Nurmatova Roza	O'qituvchi	biologiya
30	Toshkent viloyati Toshkent tumani	27-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Dadaboyeva Muhabbat Mirazimovna	O'qituvchi	biologiya
31	Toshkent viloyati Chirchiq shahar	8-sonli umumi o'rta ta'lim maktab	Qurbanova Muqaddas Umirbekovna	O'qituvchi	biologiya



4-ilova

ZOOLOGIYA DARSALARIDA "ESHITDIM-KO'RDIM-BAJARDIM" TAMOYILINING QO'LLANILISHI


«SUVDА HAM QURUQDAYASHOVCHILAR SINFI»

ESHITDIM - BOSQICHIDA
EGALLANADIGAN BILIMNI NAZARIY DARS SHAKLIDA - MA RUZA. SUHBAT TARZIDA ESHITIB O'GANADI.

KO'RDIM - BOSQICHIDA NAZARIY BIJIMLARNI AMALIV VA LABARATORIYA MANBIG ULOTLARIDA KO'RIB O'GANADI.

BAJARDIM - BOSQICHIDA
TALABA ESHITIB, KO RIB O'RGANANINI AMALIYOTGA O'ZI MUSTAQIL BAJARIB JORIY ETADI

Qurbeqa muddoti kuchlari va Angoly Radiyali










MAGISTRLIK DISSERTATSIYASIDA "ESHITDIM-KO'RDIM-BAJARDIM" TAMOYILINING QO'LLANILISHI

«Biologiya o'qitish jarayonida didaktik ko'rgazmali vositalardan foydalanish metodikasini komillashtirish»

MAVZU: NERV TIZIMI VA OLIY NERV FAOLIVATINING YOSH HUSUSIYATLARI VA GIGIENASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

14035/4-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

A.K.Raximov, S.X.Gayupova, N.A.Mirzayeva

**TABIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION
KLASTERINING NAZARIYASI VA AMALIYOTI**
Monografiya

Muharrir: X. Taxirov
Tehnik muharrir: S. Melikuziva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Times new roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i. Adadi 100 dona.

Buyurtma № 1398334

Yangi chirchiq print MCHJda chop etildi.

